



**O'zbekiston Respublikasi**  
**"NAVOIY**  
**KON-METALLURGIYA KOMBINATI"**  
**Aksiyadorlik jamiyati**  
**"NAVOIY MASHINAZOZLIK ZAVODI"**  
**Ishlab chiqarish birlashmasi**  
**"NMZ" ICHBning sifat sohasidagi**

## **SIYOSATI**

"NMZ" ICHB rahbariyatining sifat sohasidagi Siyosat asosi – birlashma stanoksozlik mahsulotlarining sifat darajasini va raqobatbardoshligini oshirish, zamonaviy bozor talablari darajasiga yetkazish va quyidagi maqsadlarga erishish:

1. Metallga ishlov berish stanoklarni mahalliy ishlab chiqaruvchilar bozorida yetakchi mavqeyini saqlash va mustahkamlash.

2. Stanoksozlik mahsulotlarini eksport qilish.

3. Yevropa, Belarus Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi mamlakatlarining o'xshash korxonalari bilan birga kooperatsiya usulida metallga ishlov berish stanoklarining texnik, sifat xususiyatlarini va raqobatbardoshligini oshirish.

4. Metallga ishlov berish stanoklarini ishlab chiqarish va ta'mirlash sifatini oshirish.

5. Maxsus metall kesish stanoklarini ishlab chiqarish hisobidan mahsulot sifatini va mehnat unumdorligini oshirish.

6. Birlashma xodimlarining ishlab chiqarish, maishiy va ijtimoiy sharoitlarini yaxshilash.

Buning uchun "NMZ" ICHB rahbariyati quyidagilarni o'z zimmasiga oladi:

1. Sifat menedjment tizimini (SMT) ish holatida saqlash, uning ISO 9001 talablariga mosligini va uning natijadorligini ta'minlash.

2. Barcha asosiy ishlab chiqarish jarayonlarini SMT bo'yicha ishlab chiqilgan hujjatlarga muvofiq saqlash.

3. SMT holatini muntazam tahlil qilish va uning natijadorligini doimiy ravishda yaxshilash uchun tuzatish ishlarini o'z vaqtida amalga oshirish.

4. Sifat sohasidagi Siyosat va maqsadlarning dolzarblashtirilishiga qarab birlashma xodimlarini o'z vaqtida xabardor qilish.

**"NKMK" AJ "NMZ" ICHB direktori**  **J.X. Xayitov**

Navoiy sh. 07.06.2024-y.